

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

QARSHI MUHANDISLIK IQTISODIYOT INSTITUTI

“TASDIQLAYMAN”



O.S.H. Bazarov

06 2022 y.

BIZNESGA KIRISH

FAN DASTURI

Bilim sohasi:

200 000 Ijtimoiy soha, iqtisod va huquq

Ta'lim sohasi:

230 000 Iqtisod

Ta'lim yo'nalishi:

5230200- Menejment(Tarmoqlar va
sohalar bo'yicha)

I. O'quv fanining dolzarbligi va oliy kasbiy ta'limdagi o'rni

Biznesga kirish fanining mazmuni predmeti va metodi uning mohiyati maqsad va vazifalari. Fanni o'qitishdan maqsad talabalarga biznes faoliyatini tashkil etishning optimal bo'lgan usullari orqali turli raqobat jarayonlarini ko'ng'uratuvchi o'zgarishlarni yoritib berish shu bilan bir qatorda biznes muhitini tashkil etish istemolchi xulq-atvorini modellashtirish tovarning sifati uning raqobatdoshligi ta'minlash firmaning bozordagi strategiyalarini to'g'ri tanlash bo'yicha yo'nalish profiliga mos bilim ko'nikma va malaka shakllantirishdir.

II. O'quv fanining maqsadi va vazifasi

Fanning asosiy maqsadi talabalarga biznesga kirish makro va mikro iqtisodiy darajada o'rganish asosida ularning yetuk va yuqori malakali mutaxassis bo'lishlarini hamda olingan bilimlari asosida o'qish va ilmiy izlanishlarini davom ettirishlarini ta'minlashdir.

Fanning vazifasi – Biznesga kirish bozor iqtisodiyoti sharoitida biznes boshqaruvning metodologik va nazariy asoslarini o'rganishdan iboratdir.

III. Asosiy nazariy qism (m a'ruza mashg'ulotlari)

Biznesga kirish fanining mohiyati va mazmuni

Biznesga kirish va tadbirkorlik tushunchalari. Biznesga kirishning mohiyati. Kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatining iqtisodiy, ijtimoiy va xuquqiy asoslari. Kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishning maqsadi va vazifalari. Biznesga kirish va tadbirkorlikni iqtisodiyotda tutgan o'rni.

Kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatining turlari va shakllari

Tadbirkorlik turlari. Ishlab chiqarish tadbirkorligi. Innovatsion tadbirkorlik. Ilmiy texnik tadbirkorlik. Tovar ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish bo'yicha tadbirkorlik. Tijorat tadbirkorligi. Moliyaviy tadbirkorlik. Maslaxat tadbirkorligi. Maslaxat xizmatlari. Tadbirkorlik shakllari. Yakkala tartibdagi tadbirkorlik. Xususiy tadbirkorlik. Oilaviy tadbirkorlik. Firmalar. Ma'suliyati cheklangan va cheklanmagan jamiyatlar. Aksiyadorlik jamiyati. Korporatsiya. Xolding kompaniya. Davlat korxonalari. Konsern. Konsorsium. Kooperativ. Kartel. Sindikat. Venchur korxonapar. Injining korxonalari.

Kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish va boshqarish

Kichik biznes va tadbirkorlik korxonalari tashkil etish va davlat ro'yxatidan o'tkazish tartibi. Kichik biznes subyektlarini bank, soliq va moliya muassasalaridan ro'yxatdan o'tkazish uchun zarur xujjatlar, ularning mazmuni. Kichik biznes subyektlarining bankrotligi. Kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarini qayta tashkil etish va yopish tartibi. Kichik biznes va tadbirkorlik korxonalarga litsenziya berish tartibi. Kichik biznes va tadbirkorlik korxonalari boshqarishning maqsadi va vazifalari. Kichik biznes va tadbirkorlik korxonalari boshqaruvining tashkiliy tuzilmalari. Kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarini boshqarish usullari va qarorlar qabul qilish jarayoni.

Kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarida marketing faoliyatini tashkil etish

Kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatida marketingning ahamiyati. Marketing - biznes falsafasi. Marketingning boshqaruv funksiyasi. Bozorni tanlash. Tadbirkorlik faoliyatida bozor segmentatsiyasining ahamiyati. Bozor segmentatsiyasining xususiyatlari. Bozorni segmentlashni tashkil etish. Bozordagi maqsadli segmentni tanlash. Bozor imkoniyatlarida biznesdagi kuchli

tomonlarning muvofiqligi. Tovarning xayotiylik davri. Kichik biznes va tadbirkorlik tizimida reklama faoliyatini tashkil etish. Kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatida marketing tadqiqotlaridan foydalanish. Kichik biznes va tadbirkorlik faoliyati uchun marketing dasturini ishlab chiqish.

Kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatini rejalashtirish

Kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatini rejalashtirishning maqsadi va vazifalari. Kichik biznesni va tadbirkorlikni rivojlantirishda biznes-rejaning ahamiyati. Biznes-rejaning mohiyati, mazmuni va tuzish zaruriyati. Biznes-rejaning asosiy bo'limlari. Biznes-rejani bajarilishini nazorat qilish. Kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatini rejalashtirishni takomillashtirish.

Kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatini iqtisodiy taxlil qilishning maqsadi va vazifalari. Kichik biznes va tadbirkorlik korxonalari faoliyatini operativ va strategik taxlil qilish. Kichik biznes va tadbirkorlik korxonalari faoliyati samaradorligi taxlili.

Kichik biznes va tadbirkorlik subyektlariga xizmat ko'rsatuvchi bozor iifratuzilmalari

Infratuzilmaning mohiyati. Kichik biznes va tadbirkorlik subyektlariga xizmat ko'rsatuvchi bozor infratuzilmasi turlari. Brokerlik idoralari, ulguji va chakana savdo tuzilmapari, lizing, konsalting va sug'urta kompaniyalari, bojxona xizmati, axborot - maslaxat markazlari, injinering va auditorlik firmalari. O'zbekistonning bank-moliya tizimi. Bank-moliya sohasidagi o'zgarishlar. Banklarning asosiy operatsiyalari. Kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishda banklarning roli. Banklardan kredit berish tartibi.

O'zbekistonda soliq tizimi. Umum davlat va maxalliy soliqlar. Soliq yukini kamaytirishga qaratilgan soliq siyosati. Kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarini soliqqa tortish. Kichik biznes va tadbirkorlik subyektlaridan olinadigan soliq turlari. Kichik biznes va tadbirkorlik subyektlaridan soliq olish qoidalar va soliq intiyozlari.

Kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarida ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot tannarxi taxlili

Ishlab chiqarish xarajatlarning mohiyati tarkibi va elementlari. Kichik biznes subyektlarining ishlab chiqarish, sotish va boshqa faoliyati natijasida yuzaga keladigan xarajatlarni turkumlash. Ishlab chiqarish xarajatlari. Noishlab chiqarish xarajatlari. Ichki xarajalar. Tashqi xarajalar. Ishlab chiqarish xarajatlari. Noishlab chiqarish xarajatlari. Ichki xarajalar. Tashqi xarajalar. Doimiy xarajalar. O'zgaruvchan xarajalar. Bevosita xarajalar. Bilvosita xarajalar. Maxsulot tannarxiga kiritiladigan xarajalar. Davr xarajatlari. Moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajalar. Favqulotda zararlar. Mahsulotni tannarxi va uni xisoblash usullari. Mahsulot tannarxini pasaytirish yo'llari.

Tadbirkorlik etikasi va madaniyati

Tadbirkor raxbar etikasi. Tadbirkor raxbarning etika kodeksi. O'ziga jalb qilish imidji. Tadbirkor raxbar faoliyatining ruxiy-psixologik xususiyatlari. Tadbirkor raxbar etiketi. Suxbatlashish, tanishish xamda surashish normasi. Ish kontraktlarini tashkil qilish. Ish suxbatlarini olib borish. Ish qogozlarini yozish. Telefonda gaplashish madaniyati. Ish protokoli va xisoboti. Tadbirkor raxbarning nutqi madaniyati va uning ruxiy-psixologik xususiyatlari. Tadbirkor raxbarning tashqi ko'rinishi va o'zini tutishi. Tadbirkor raxbar va xodimlar o'rtasidagi munosabatlar. Tadbirkor raxbar faoliyatida mojaroli xolalar va ularni xal etish usullari.

IV. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Biznesga kirish fanining mohiyati va mazmuni
2. Kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatining turlari va shakllari.
3. Kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarida marketing faoliyatini tashkil etish.
4. Kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarida marketing faoliyatini rejalashtirish.
5. Kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatini rejalashtirish.

6. Kichik biznes va tadbirkorlik subyektlariga xizmat ko'rsatuvchi bozor infratuzilmalari.
7. Kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarida ishlab chiqarish xarajatlari va maxsulot tamarxi taxlili.
8. Tadbirkorlik etikasi va madaniyati.

Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlarni o'tkazishda quyidagi didaktik tamoyillarga amal qilinadi:

- amaliy mashg'ulotlarning maqsadini aniq belgilab olish;
- talabada natijani mustaqil ravishda qo'lga kiritish imkoniyatini ta'minlash;
- talabani nazariy-metodik jihatdan tayyorlash.

Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha kafedra professor- o'qituvchilari tomonidan ko'rsatma va tavsiyalar ishlab chiqiladi. Unda talabalar asosiy ma'ruza mavzulari bo'yicha olgan bilim va ko'nikmalarini amaliy masalalar, keyslar orqali yanada boyitadilar. Shuningdek, darslik va o'quv qo'llanmalar asosida talabalar bilimlarini mustahkamlashga erishish, tarqatma materiallardan foydalanish, ilmiy maqolalar va tezislarni chop etish orqali talabalar bilimni oshirish, masalalar echish, mavzular bo'yicha taqdimotlar va ko'rgazmali qurollar tayyorlash, qonun va me'yoriy hujjatlardan foydalana bilish va boshqalar tavsiya etiladi.

V. Fan bo'yicha kurs ishi

Fan bo'yicha kurs ishlari o'quv rejada ko'zda tutilmagan.

VI. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Talaba mustaqil ishini tayyorlashda fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda ma'lumotlarni jadvallarda aks ettirish, ko'rsatkichlar tizimidan foydalanish, grafiklarda aks ettirish, slaydlar ko'rinishida belgilash, ko'rsatmali qurollarda aks ettirish va boshqa shakllardan foydalanish tavsiya etiladi. Mustaqil ish bajariladigan mavzular bo'yicha savolnomalar tuzish, savollarga foydalanishga tavsiya etilgan adabiyotlardan foydalangan holda yozma tarzda javob berish, qonun, qaror, me'yoriy hujjatlardan foydalanish, har bir mavzu bo'yicha muammoli masalalarni hal qilish yo'llarini bayon qilish, tavsiyalar berish va boshqalar. Mustaqil ta'limni tashkil etishning mazmuni: talabalar mustaqil ishlari mavzulari kelgusida bajariladigan kurs ishlari va bitiruv malakaviy ishlari mavzulari bilan uzviylikda bajariladi.

Tavsiya etilayotgan mustaqil ishlarning mavzulari

Mustaqil ta'lim mavzulari tegishli kafedra yig'ilishida tasdiqlanadi va fanning ishchi o'quv dasturida keltirib o'tiladi. Tavsiya etilayotgan mustaqil ta'lim mavzulari:

1. "Korporativ boshqaruv" kursiga kirish
2. Korporativ boshqaruv nazariyasining evolyutsiyasi
3. Korporativ boshqaruv zamonaviy amaliyoti va modellari
4. Korporativ strategiya va ijtimoiy mas'uliyat
5. Davlatning korporativ sektorda qatnashishi
6. O'zbekiston Respublikasida korporativ boshqaruvning institutsional asoslari
7. Korporativ boshqaruv organlari

8. Jahon moliyaviy - iqtisodiy inqirozi sharoitida korporatsiyalarning faoliyat ko'rsatish mexanizmi va ularning xususiyatlari
9. Mas'uliyati cheklangan jamiyatni tuzish va faoliyatini boshqarish xususiyatlari
10. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida korporativ boshqaruvni moliyalashtirish
11. Korporativ nizolar
12. Korhonalarni restrukturalizatsiyalash
13. Korporativ boshqaruv samaradorligini baholash
14. Korporativ boshqaruvda axborot va kommunikatsiya
15. Aksiyadorlik jamiyatlari va ma'suliyati cheklangan jamiyatlarda audit va ichki nazorat tizimi
16. Korporativ madaniyat
17. Korporativ boshqaruv muammolari va rivojlanish istiqbollari

1. O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari.

2. Xorijiy mamlakatlarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish.
3. Aholining bandlik muammosini hal etishda tadbirkorlikning tug'an o'ri.
4. Tovar ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish bo'yicha tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari.
5. Savdo-xarid va savdo-vositachilik kichik biznes va xususiy tadbirkorligini rivojlantirish yunalishlari.
6. Xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish muammolari.
7. Kichik biznes taktikasi va strategiyasi.
8. Kichik biznes obyektlari, subyektlari va shakllari.
9. Kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash.
10. Kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatini rejalashtirishni takomillashtirish.
11. Kichik biznes korxonalarini boshqarishni o'ziga xos xususiyatlari.
12. Kichik biznes korxonalarining bankrotligi va ularni davlat tomonidan moliyaviy qo'llab-quvvatlash.

13. Kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarida maxsulot tannarxining kamaytirish yullari.

14. Kichik korxonalar va tadbirkorlik subyektlari maxsulotiga baxobelgilash boskichlari va usullari.
15. Kichik biznes va tadbirkorlik subyektlari faoliyatida tavakkalchilikni kamaytirish yo'llari.
16. Kichik biznes va tadbirkorlik subyektlari faoliyati samaradorligini oshirish yo'llari.
17. Jahon iqtisodiyotida oziq-ovqat muammosi

Mavzular mazmuni hamda ularning ro'yxatiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish kafedra tomonidan amalga oshirilishi mumkin.

Foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati

Asosiy adabiyotlar

1. Samadov A.N., Ostanaqulova G.N. Kichik biznes va tadbirkorlik. T.: Moliya-iktisod, 2008.
2. Boltaboyev M.R., Qosimova M.S., Ergashxodjaeva S.H.J., Goyignazarov B.K., Samadov A.N., Xodjaev R.S. Kichik biznes va tadbirkorlik. - T.: ADIB NASHRIYOTI, 2011 - 235 b
3. Qosimova M.S., Yusupov M.A., Ergashxodjaeva S.H.J. Marketing. - T.: TDIU - 2010.
4. Xodjaev B.Y., Qosimova M.C., Samadov A.H. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik. T.: TDIU, 2011.

Qo'shimcha adabiyotlar:

1. S.H.M. Mirziyoyev. "2020 yil uchun mo'ljallangan eng muhim ustivor vazifalar haqida Oliy Majlisga Murojaatnomasi" //Xalq so'zi 2020 yil 25 yanvar.
2. "O'zbekiston yanada rivojlanish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF -4947 -sonli Farmoni.
3. Mirziyoyev S.H.M. "Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'limi kerak /-T.; O'zbekiston. 2017. -104 b.

4. Mirziyoyev SH.M. "Qonun ustivorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi" /-T.; O'zbekiston. 2017. -48 b.
5. Mirziyoyev SH.M. "Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz" /-T.; O'zbekiston. 2017. -48 b.
6. Малый бизнес. Организация, экономика, управление: Учеб. Пособие для вузов / Под ред. Проф. В.Я. Горфинкеля, проф. В.А. Швандара. - 2-е изд., перераб. И доп.-М.: ЮНИТИ - ДАНА, 2008.
7. Предпринимательство: учебник / под. ред. М.Г. Лапуста. - 4-е издательство, доп. - М.: ИНФРА-М, 2008. - 667 с.
8. Анискин Ю.П. Организация и управление малым бизнесом: Учеб. пособ. - М.: Финансы и статистика, 2008. - 160 с.

Axborot manbaalari

1. www.gov.uz - O'zbekiston Respublikasi Davlat hokimiyati portali
2. www.press-service.uz - O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Matbuot xizmati rasmiy sayti
3. www.mfer.uz - O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar, investisiya va savdo Vazirligining rasmiy sayti
4. www.UzA.Uz - O'zbekiston milliy axborot agentligi rasmiy sayti
5. www.review.uz - Ekonomicheskoye obozreniye jurnal
6. www.cer.uz - Iqtisodiy tadqiqotlar Markazining rasmiy sayti
7. www.uzreport.com - biznes axborotlari portali

Qarshi muhandislik iqtisodiyot instituti tomonidan ishlab chiqilgan va Institut Kengashning 2022 yil "25" 06 dagi 11-sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan.

Fan/modul uchun ma'sullar:

I O Berdivov-OarMII "Biznes va innovatsion meneciment" kafedrası katta o'qituvchisi

Taqrizchilar:

Muhtidinov X.S. Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti "Biznes va innovatsion menejment" kafedrası professori.

Qurbonov A.B. Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti "Innovatsion iqtisodiyot" kafedrasida dotsenti, i.f.n.